

“Davlat fuqarolik xizmati to’g’risida”gi qonun targ’ibotiga bag’ishlangan yig’ilish bo’lib o’tdi



“Davlat fuqarolik xizmati to’g’risida”gi qonun targ’ibotiga bag’ishlangan yig’ilish bo’lib o’tdi

Bugun Termiz shahar hokimligida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining Surxondaryo viloyati filiali mas’ullari tomonidan “Davlat fuqarolik xizmati to’g’risida”gi qonunning mazmun-mohiyati va ahamiyatiga bag’ishlangan targ’ibot tadbiri o’tkazildi.

Tadbirda viloyat moliya bosh boshqarmasi, viloyat G’aznachilik boshqarmasi va O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi Surxondaryo viloyati boshqarmasining xodimlari ishtirok etishdi.

Unda ma’ruzachilar tomonidan Qonunning mazmun-mohiyati, davlat fuqarolik

xizmatchilarining huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari, vazifalari yuzasidan batafsil tushunchalar berildi.

Yakunda ishtirokchilar tomonidan Qonunda belgilangan me'yorlar yuzasidan berilgan savollarga mutaxassislar atroflicha javob berib o'tdilar.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

